

MAXTUMQULI IJODI - TARBIYA MAKABI

Gilichxanov Xıdır Melaevich,

Azadi nomidagi turkman milliy jahon tillari instituti professori, Turkmaniston Respublikasi, Ashxobod

Baymenova Kamshat Saparbaevna,

Berdaq nomidagi QQDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Maxtumquli ijodida uchraydigan millat ma'naviyatiga oid she'riy turkumlar atroficha bayon qilingan. Ijodkorning aynan pand-nasihat asosiga qurilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega she'rlari ko'proq talqin qilingan.*

Kalit so'zlar: *til, urf-odatlар, turkiy millatlar, do'stlik aloqalari, adabiy meros, pand-nasihat.*

Adabiyot bamisoli ko'pri. U dillarni dillarga, ellarni ellarga bog'laydi. Azal-azaldan bir daryordan suv ichib, qo'ni-qo'shni bo'lib yashab kelayotgan o'zbek va turkman xalqlarining qalblari mushtarak – tili va urf-odatlari yaqin, madaniyati uyg'un, adabiyoti va san'ati hamohang. G'ayratiy ta'kidlaganidek: «O'zbek-turkman xalqlarining do'stlik va qardoshlik tarixi Amuday uzun». Turkman xalqi Alisher Navoiy g'azallarini sevib o'qiganidek, o'zbeklar ham Maxtumqulini o'z shoiridek ardoqlaydi.

Maxtumquli bolaligidan ketma-ket ayriliqlar girdobida qolgan, qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgan va shu asosida qalamida hayot mashaqqatlari yohud tarbiyasini uqtirgan ulug' shoirdir. Nafaqat o'zbek va turkman adabiyotida, balkim turkiy xalqlar adabiyotida ham alohida o'ringa ega shoir Maxtumquli shaxsi va hayoti ibratu hayrat manbaidir. Bu mutafakkir, donishmand va ulkan iste'dod sohibi haqida ko'p yozilgan, unga ta'rif va baholar berilgan.

Hayotiy saboqlarini teran fikrlar bilan sodda va lo'nda qilib she'riy satrlarga tizgan. Maxtumquli qator she'rlarida insonlarga ma'lum darajada dars bergan.

Maxtumquli ijodi lirik she'rlar, liro-epik dostonlar, mumtoz she'riyat yo'lida bitilgan go'zal to'rtlik va muxammaslar hamda xalqona ohangda yozilgan she'rlardan iborat. Shoir ijodi bilan tanishar ekanmiz, uning adabiy merosida o'zbek-turkman ellarining qon-qardoshlik tuyg'ulari singdirilganligini his etamiz. Yassaviy, Alisher Navoiy hazratlariga ergashgan holda qalam tebratganini anglashimiz mumkin. Uning serqirra ijodi qalbingizga ilohiy tuyg'u bag'ishlaydi.

Shoir she'rlarida ko'proq yaxshi va yomon, mard va nomard, halol va harom, boy va kambag'al, urush va tinchlik kabi o'zaro bir-biriga zid tushunchalar ko'p uchraydi.

Maxtumquli she’riyati – nurli she’riyat. Uning butun ma’rifati, islomiy muhabbat, ishqqi, shavqi, qayg‘usi she’rlarida aks etadi. She’riyat shoir qalbining ko‘zgusidir. Ijodida dunyoviy va bilim, ilm-ma’rifatdan xabar beruvchi savol-javob tarzidagi she’rlar alohida o‘rin egallagan.

Maxtumqulining butun ma’rifati, islomiy muhabbat, ishqqi, shavqi, qayg‘usi she’rlarida aks etadi. She’riyat shoir qalbining ko‘zgusidir. Maxtumquli she’riyati bani basharga qilingan otashin va ma’rifiy xitoblardan iborat. Maxtumquli she’riyati Qur’oni karim va hadisi shariflar ma’nolarining she’riy sharhidan iborat.

Shoir she’riyatining bosh yo‘nalishi: iymon-e’tiqod, o‘lim va hayot, qiyomatning haqligi, dunyoning foniyligi va oxiratning boqiyligi, ogohlik bilan oxiratga hozirlik ko‘rmoq zaruriyati kabi ezgu g‘oyalardir.

Maxtumquli, sen dam-badam

Oxirat sari ur qadam.

Yaxshi-yomon – barcha odam

Ajalning giriftoridir.

Maxtumquli she’riyati ezgulikka da’vatdir. Foniy dunyoga aldanmang, deydi shoir.

Maxtumquli birinchi navbatda turkman xalqining shoiri edi. Uning yozgan asarlarida o‘z eliga, undagi urug‘, qabilalarga nisbatan katta mehr-muhabbat yaqqol sezilib turadi. O‘z xalqiga mana shunday ehtirom tuyg‘ularini uning bir qator badiiy ijodi, xusan, «Turkmanning», «Turkman binosi», «Kurilsin endi» she’rlarida aniq-ravshan kurinib turadi. Ayniqla, shoirning «Turkmanning» radifli nazmiy namunasi o‘z vatani va xalqiga ulkan, chek-chevara bilmas jo‘shqin his-kechinmalari badiiy ifoda topgan.

Tabiiyki, Maxtumquli birinchi navbatda turkmanlarning milliy shoiridir. SHu bilan bir qatorda, u - barcha turkiy uluslar, birinchi navbatda Markaziy Osiyo hududida yashaydigan turkiy tilli xalqlarning vakili va ijodkori. O‘sha vaqtlar - moziyning o‘n ettinchi - o‘n sakkizinchi asrlarida “Turkbirligi” (er yuzidagi barcha turkiy xalqlarning birlashishi) g‘oyasi (bunday ulug‘vor maqsad bitiktoshlarda tajassum topgan) mavjud bo‘lsa-da, turkiy uluslarning taraqqiyatining namoyandalari o‘z xalqlari ichidagi urug‘ va xalqlarning birlashishga targ‘ibetardilar.

Turkiy xalklarning barchasiga xos mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, do‘stlarga sadoqat, jangovarlik, mardlik va kurashchanlik xususiyatlari barcha turkiy ijodkorlar, shu jumladan, Maxtumqulini ham o‘zaro bog‘lab-tutashtirib turadi. Bu fikr isbotini shu buyuk shoir ijodidan xoxlaganimizcha topishimiz mumkin:

Qora toshdan qora qilni ko‘rgan ko‘z,

Ko‘zingning gavhari ko‘zga mehmondir.
Kelgan osh deb kelmas, sen burmagil yuz,
Nonga muhtoj emas, so‘zga mehmondir.

Umuman olganda, mehmondo‘stlik - insoniyatga xos umumbashariy fazilat. Bu insoniy xususiyat turkiy xalqlarda yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan. Butun dunyoni kezib yurgan chet ellik sayyoohlar turkiylarning mehmon uchun jon berishga ham tayyor turganliklariga guvoh bo‘lganlar va bu haqda o‘z safarnomalarida yozib koldirganlar.

Maxtumquli avvalambor turkiy, xususan, turkman ulusining namoyandasi va vakili edi. Uning anchagina yirik ijodiy-badiiy merosini o‘rganish shundan dalolat beradiki, shoir o‘z bitiklarining asosiy qismlarida ma’naviy-ilohiy tafakkur jilo berib, bo‘y ko‘rsatib turibdi. Ularda halollik, poklik, ezgulik ulug‘langan, e’tiqodsizlik, razolat keskin rad etilgan. Binobarin, Turkman elida hazrat Alisher Navoiyning “Odami ersang, demagil odami, onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” degan o‘lmas hikmati qanchalik mashhur bo‘lsa, o‘zbek xalqi orasida buyuk Maxtumqulining “Er yigitning aslin bilay desangiz, Avval va’dasinda turishin ko‘ring”, “Ta’lim bergen ustozingdan ayrilma” kabi purma’no hikmatlari shunchalik ma’lum va mashhurdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Bertels E Maxtumkuli. – Ashgabat, 1975
2. Kosaev M. Maxtumkuli Fragi // Maxtumkuli (Sbornik statey).
3. Maxtumquli. Dunyo o‘tib boradir: SHe’rlar. –T.: «SHarq» 2007.
4. Baymenova, K. (2023). FORMATION OF STUDENTS'ABILITY TO WORK WITH SCIENTIFIC TEXT ON THE BASIS OF PISA ASSIGNMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 105-109.
5. Nurjanova, Yu. Sh. (2021). XALQ OG‘ZAKI IJODI JANRLARINI O‘QITISHDA NAZARIY MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH: Nurjanova Yulduz Shukrullayevna, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 48-53.
6. Doshanova, G. "MAHMOUD TOIR FOURS TRADITIONS AND UPDATES." *Miasto Przyszlosci* 35 (2023): 244-246.
7. Aminbayevich, Q. I., Abdullayevna, A. M., Shonazarovna, B. Z., Soatboy og‘li, B. U., & Yuldashevna, B. O. (2021). METAFORA AS A FACTOR OF SYMBOLIC-MEMORIAL INTERPRETATION IN THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC SPEECH. *湖南大学学报(自然科学版)*, 48(12).